

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI.

Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Buxoro davlat universiteti

Qodirova Nozima Rasulovna

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati va uning qo‘llab-quvvatlanishi uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, kichik biznes, bandlik, mehnat resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy muhit.*

I.Kirish

Bugungi yangilanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jamiyatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va taraqqiy etishiga, shuningdek, raqobatbardosh iqtisodiyotning samaradorlik darajasi va bozor islohotlarining muvaffaqiyatlilik darajasiga ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining tub mohiyati ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

II.Asosiy qism

Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishdan iborat. Bugungi kunda koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan global iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari qatori kichik tadbirkorlik sohasida vujudga kelgan murakkab vaziyatni yumshatish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi 2020-yil 3-apreldagi PF5978-sonli, «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020 yil 20-iyuldagi PF-6029-sonli Farmonlarini bunga misol qilish mumkin.

Iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi. Ma'lumki, tadbirkorlik-bu tashabbus va faollik asosida kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xatarlarni hisobga olib, mas'uliyat va javobgarlik bilan amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyatdir. U erkinlik, ijodkorlik hamda raqobat muhiti uyg'unligida juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, faoliyat ko'lami jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo'lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko'rsatish yoki soliqlar to'lashda tadbirkorlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda.

Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanish asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tadbirkorlik muhiti turlichadir. Rivojlangan mamlakatlarda bunday muhit o'zining qulayligi hamda iqtisodiy jarayonlarning yuqori darajada unumli tashkil qilinishi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy jarayonlar qanchalik unumli bo'lsa, jamiyat moddiy va ma'naviy jihatdan shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Iqtisodiy jarayonlarning samarasi amalda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning soni va sifati hamda shu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishilar soni bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik ishiga yangi tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik muhiti darajalariga bog'liqdir. Oxirgisi tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashishi darajasiga bog'liq. Davlat shunday shart-sharoitlar yaratib berishi kerakki, unda tadbirkorlarning va tadbirkor bo'lmoqchi bo'lganlarning qiziqishi, xohishi va intilishlari maksimal darajada o'z ifodasini topsin. Jahon tajribasi ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tadbirkorlik uchun barcha qulayliklar yaratib berilganligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur.

Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib beriladi. Bunday choralar orqali

odamlarimizda tadbirkor bo'lishga ishtiyoq va ishonch ortadi, ular ko'proq daromad olishga intiladigan bo'ladi,"_ degan fikrlarining o'ziyoz hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka bo'lgan e'tiborning qay darajada yuqoriligidan dalolat beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4862-son Qarori tasdiqlanishi yuqorida Prezidentimiz tomonidan qayd etib o'tilgan fikrlarning hayotdagi isboti sifatida qarash mumkin.

Ushbu Qaror aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirishga qaratilgan. Ushbu qarorda aholini ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanishga jalb etish, mikromoliyalash tizimini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Hududda qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhitning shakllanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan samarali va optimal foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish uchun jamiyatda tadbirkorlik bilan shug'ullanishga tayyor insonlar hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi institutlar bo'lishi kerak.

Iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotini ta'minlashda, tovarlar va xizmatlar etishmovchiligini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik katta o'rin tutadi. Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidagi o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- erkin mehnat resurslarining, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;

- aholining, birinchi navbatda, yoshlarning, moddiy, ma'naviy va kasb darajasini ko'tarish;

- aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

- milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqa uchun g'oyat muhim bo'lgan iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

III.Xulosa

Bugun tadbirkor davlat himoyasida bo'lib, olgan foydasiga to'la egalik qilish, o'zining faoliyat doirasini kengaytirish imkoniyatlariga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi esa milliy iqtisodiyot realsektori takomillashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida alohida o'rin tutmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot//2021-yil 21-avgust

2.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faoliyatini boshqarish:o`quv qo`lanma/D.Sobirjonova,U.Boymatova,F.Bozorova;O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus .-T:”Fan va texnologiya”2012-yil,284-bet

3.Kichik biznes va Tadbirkorlik : o`quv qo`llanma\M. Boltabayev, M. Qosimova, B. G`oyibnazarov,Sh. Ergashxodjayeva, A. Samadov, Sh. Otajonov;O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus.-T:”Noshir”2011-yil,280-bet

4.Kichik biznes va Tadbirkorlik : darslik\D.S.Qosimova; O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus.-T:”Innovatsion rivojlanish”2020-yil,328-bet

5.Abdulloyev A.J., Raxmatov A.A. Tadbirkorlik subyektlari salohiyatini oshirishning iqtisodiy asoslari hamda rivojlanish istiqbollari. Central Asian Academic Journal of Scientific research (2022) 582-587-bet.